

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“UMUMIY PEDAGOGIKA” KAFEDRASI

**“Darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda
ekologik madaniyatni tarbiyalash” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish” ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Yazdanova Almaxon**_____

ILMIY RAHBAR:

p.f.n. Bozorova M.Q._____

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi “ _____ ” _____2013 yil

TERMIZ – 2013

Reja:

Kirish.

I BOB. Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarini tashkil etishning ilmiy nazariy asoslari.

I.1. Sinfdan tashqari ta'lim tarbiya ishlari mazmuni.

I.2. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarida ekologik madaniyatni tarbiyalash imkoniyatlari.

II BOB. Darsdan tashqari ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash usullari .

II.1. Fan to'garaklarida o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash usullari.

II.2 Turli xil tarbiyaviy tadbirlarda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish usullari.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Inson tabiatning bir qismi bo'lishi bilan bir qatorda, o'zining hayot faoliyatida yangidan-yangi usullar bilan tabiatga ta'sir qilishni davom etmoqda. Bu esa ekologik tizim holatining o'zgarishiga, ayniqsa, ularning sifat va miqdor ko'rsatkichlarining buzilishiga olib keldi. Bunday faoliyat natijasida yer shari yuzasi, iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosi, sayyoramiz havosi o'zgarishi, suvning ifloslanishi, o'rmonlarning qirqib yuborilishi, yer yuzasida tuproq nurashi, hayvonot va baliqlarning ko'p ovlaniishi natijasida ekologik inqiroz yuzaga keldi. Inson faoliyati ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketishiga sabab bo'ldi.

XXI asr boshlariga kelib, tabiat bilan insoniyat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Sayyorada murakkablashib borayotgan ekologik vaziyat, butun insoniyat oldida tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat zahiralaridan tejab-tergab, ehtiyotkorlik bilan oqiloni foydalanishni, agar ana shu muammolarni zudlik bilan hal etishga kirishilmasa, ularning oqibatlari o'ta dahshatli bo'lishi, hattoki, sivilizatsiya halok bo'lishi mumkinligi dunyodagi barcha mamlakatlar va xalqlar oldiga ko'ndalang qilib qo'ydi.

Ekologik xavfsizlik, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov - kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi... Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijobiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir¹.

Ma'lumki, inson boshqa tirik organizmlardan ongli munosabatining shakllanganligi, o'zining chuqur idrok eta olish qobiliyatining rivojlanganligi,

¹ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston". 1997. 115- b.

aqlliligi bilan keskin ajralib turadi. Shu sababli ham ular Atrof-muhitni muhofaza etish uchun yoshi, jinsi, millati, e'tiqodi, mansabi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar inson tabiatga zo'rovonlik qilishni to'xtatmasa, tabiat insondan shavqatsizlarcha o'ch olishi, hamda sivilizatsiya yutuqlarini bir lahzada yo'q qilib tashlashini anglash hamda ushbu fikrlarni yosh avlod ongi singdirish zarur.

Hozirgi davrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb ekologik muammo atrof-muhitning ifloslanishini bartaraf etib, ularning barqaror muhafazasini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, insoniyatning baxt-saodati, ertangi kuni, kelgusi avlod taqdiri uchun g'amxo'rlik qilishdek muhim pedagogik, siyosiy, muammoni kun tartibiga olib chiqish vazifasini qo'yadi. Atrof-muhitda sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlar tabiiy jarayonlarning ajralmas bo'lagi bo'lsa-da, biroq u ko'p jihatdan inson faoliyati – antropogen omillar bilan chambarchas bog'liq.

Agar ekologik muammolar iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, estetik omillarning uzviy va uzluksiz birligida tahlil qilinsa, uning o'ziga xos jihatlaridan biri bu kishilarda atrof-muhit, tabiat haqidagi bilimlar tizimi, yuksak ekologik madaniyat, ekodunyoqarashning davr talablari darajasida shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Bu zaruriyat barcha insonlarga, xususan, o'quvchilarga tabiatni e'zozlash ruhida ta'lim-tarbiya berishni takomillashtirishni taqozo etadi. Global muammoga aylangan tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarning tobora keskinlashuvi esa aholi, ayniqsa, yosh avlodning ekologiya va atrof-muhitning muhofazasi haqidagi nazariy hamda amaliy bilimga bo'lgan ehtiyojlarini oshirmoqda.

Shu jihatdan tabiatni e'zozlash, kurrai zaminimizdagi muhitning qanday omillar sababli ifloslanayotgani va boshqa masalalar haqida o'quvchilarga bilim berish ta'lim tizimi oldidagi o'ta dolzarb muammolardan.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob

beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz»².

Shuningdek, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tayotgan mustaqil yurtimizning ko‘p sohalarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlari qatorida atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga kirishganini ham alohida ta’kidlash lozim. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1992 yil 9 dekabrda 755-XII-son qarori bilan 1993 yil 29 yanvardan kuchga kiritilgan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida» qabul qilingan Qonuni fikrimizning yaqqol dalilidir.

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida ta’kidlaganidek, xususan atrof-muhitni himoya qilishni ta’minlash tizimida nodovlat notijorat tashkilotlarning roli va o‘rnini belgilashga qaratilgan «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonun loihisini va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati yetdi, deb o‘ylayman.³

Mustaqillik yillarida qabul qilingan qator Qonun va qarorlarda tabiatga muhabbat va ekologik munosabatlarni tartibga solish, tabiatni asrab avaylash va ekologik xavfni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni 4-moddasida: «Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo‘jaliklari, shuningdek, shaxslar, xo‘jalik boshqaruv hamda faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak: barcha turdagi ta’lim

² I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 74-75.

³ I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 47.

muassasalarida o‘quvchilarni ekologik qonun-qoidalar bilan tanishtirish majburiydir» deya ta'kidlangan⁴.

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda «Suv va suvdan foydalanish», 1996 yil 27 dekabrda «Atmosfera havosini muhofaza qilish», 1994 yil 24 sentyabrda «er osti boyliklarini muhofaza qilish va undan foydalanish», 1996 yil 27 dekabrda «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish» hamda «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qabul qilingan Qonunlarida tabiatni muhofaza qilish uchun havoning tozaligini ta'minlash, suvdan oqilona foydalanish, yer osti boyliklaridan, o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish va qo‘riqlash me'yorlari qat'iy qilib belgilangan⁵.

BMTning YUNISEF hamda xalqaro «EKOSAN» jamg‘armalari tashabbusi bilan 1995 yil 31 iyulda «YUNISEF-EKOSAN-ASPERA dasturini amalga oshirish tadbirlari haqida» maxsus qaror qabul qilindi. BMTga a'zo davlatlarning hammasi 2015 yilga qadar bir qadar maqsadlarga erishishni o‘z zimmlariga oldilar.

Ekologik barqarorlikka erishishda ustuvor taraqqiyot g‘oyalarini mamlakatlar reja va dasturlariga kiritish, tabiiy zahiralarni saqlashga chek qo‘yish, toza ichimlik suvi tanqisligini ikki barobar qisqartirish hamda 2020 yilga borib, kam deganda, 100 million aholi turmushini yaxshilash nazarda tutilgan⁶.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz o‘z bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash”** deb tanlashni lozim topdik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashning tizimi va mazmunini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini ta'minlashga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratish.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonun, – Toshkent, 1992.

⁵ Xasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish pedagogikasi. – Toshkent, 1996.

⁶ Birlashgan millatlar tashkilotining Nizomi va xalqaro sud statusi.: Toshkent, 2002.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya berishda ekologik madaniyatni tarbiyalash jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash mazmuni, vosita va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya berish jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash samara beradi. Agar:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashga yangicha yondashilsa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, tarbiyalash jarayoni tizimli, dastur va reja asosida tashkil etilsa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashning shakl, uslub va usullari amaliyotga, sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, oila va jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida ta'minlansa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash darajasini belgilovchi mezonlar asoslansa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashga oid yuqori samaradorlikni kafolatlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- mavzuga oid ilmiy, metodik, pedagogik-psixologik hamda tarixiy-falsafiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish asosida darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash dolzarb pedagogik muammo ekanligini aniqlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashning mavjud holatini o'rganish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash jarayonining mazmunini asoslash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash metodikasini ishlab chiqish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash darajasini belgilovchi mezonlarni aniqlash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uning samaradorlik darajasini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: pedagogik tahlil, anketa, savol-javob, suhbat, o‘quvchilarga darsdan tashqari ekologik madaniyat ruhida ta‘lim-tarbiya berish jarayonini kuzatish, analitik obzor, mutaxassislarning kvalifikatsion tavsifi, pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika, umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga oid normativ-huquqiy xujjatlar, Prezident I.A.Karimovning ta‘lim hamda ilm-fanni isloh qilish sohasidagi, shuningdek, ekologiyaga oid fikr va qarashlari, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Bola huquqlari konvensiyasi», Sharq mutafakkirlarining axloqiy, ekologik qarashlari, o‘tmish allomalar, donishmandlarning ekologik tarbiya haqidagi g‘oya va o‘g‘itlari muammoning o‘rganilishida xizmat qiladi .

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 4 bo‘lim, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami (60) sahifani tashkil qiladi.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.

I.1. Sinfdan tashqari ta'lim tarbiya ishlari mazmuni.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilmag'xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish formalaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ulard mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro xurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- ulg'atgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;

- v) duradgorlik to'garaklari;
- g) sport to'garagi;
- d) badiiy xavaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlarig yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyo qarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;
- sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;
- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayoram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilmag'xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar

jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi. Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

1. **Og'zaki ish usullari.** Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, maoruzalar, kitobxonlar konferensiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og'zaki gazetalar, radiojurnallar.

2. **Amaliy ish olib borish usullari,** turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish foaliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar.

3. **Ko'rgazmali ish usullari.** Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, axil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishlari lozim.

Jamoat tashkilotlari o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan xilmag'xil mashg'ulotlarni o'qituvchilar yordamida tashkil qiladilar. Sinfdan tashqari ishlar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijtimoiy foydali, badan tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar uch xil formada: ommaviy, to'garak va individual formalarda tashkil qilinadi.

Ommaviy formalar: Ertaliklar, maktab kechalari, bolalar bayramlari, ko'riklar, quvnoqlar va topqirlar to'garagi, sayr, sinf ki maktab muzeylari, bolalar ishlarining ko'rgazmalari v hokazolar.

To'garak ishlari: maktabdagi har bir to'garak o'zining doimiy ish kunlari va soatlariga ega bo'lishi lozim. To'garakda qat'iy intizom bo'lishi: to'garak a'zolari mashg'ulotlariga kechikmasdan kelishlari, to'garak topshiriqlarini batrtib bajarishlari, to'garakning moddiy boyliklarini ehtiyot qilishlari kerak.

Sinfdan tashqari individual ish: har bir o'quvchi mayl va qobiliyatlarining rivojlanishiga rdm beradi. Bu ishd sinfdan tashqari o'qish katt ahamiyatga ega. Maktabda har bir sinf uchun sinfdan tashqari o'qish dsturi bor. O'quvchining nima o'qiyotgani va o'qigan nrsalarini qandy idrok qilayotganini o'qituvchi bilishi juda muhim. Shuning uchun o'qituvchining sinfdan tashqari o'qishga rahbarligi eng yaxshi kitoblarni targ'ib qilish va o'quvchilarda o'qilgan darsliklarni to'g'ri, chuqur idrok etishni rivojlantirishdan iborat.

Individual topshiriqlarning turlari juda ko'p bo'lib, o'simliklar o'stirish, gullar, svzvotlar yetishtirish ham ana shunday topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida bolalarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda ayrim o'qituvchilar, gruppaga yoki butun sinf bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish.

Maktabdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ixtiyoriy ravishda, aktiv va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi.

Rayon, shahar, o'lka va respublika hamda maktab o'quvchilari saroylari va uylari – ancha keng tarqalgan maktabdan tashqari muassasalardir. Ular xalq maorifi organlari rahbarligi ostida ishlaydilar.

Maktabdan tashqari mussasa bolalar kutubxonasining ishi diqqatga sazovor. Bolalar kutubxonalari maktablarning I-IV sinflari o'quvchilariga, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi kitob o'qiy oladigan bolalarga xizmat ko'rsatadi. Kutubxonaning butun ishi bolalarga yaxshi tarbiya berishga, fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishga, bolalarda o'qish madaniyatini

tarbiyalashga, mustaqil ravishda bilim olish malakalarini hosil qilish va mustahkamlashga qaratilgan.

Ko'pgina maktabdan tashqari muassasalarning ishlari misolida, maktabdan tashqari muassasalar o'quvchilar bilan olib boriladigan t'lim-tarbiya ishida maktab va oilaga jiddiy yordam bermoqdalar degan xulosaga kelish mumkin. O'qituvchi muayyan aholi yashaydigan joyda maktabda qanday muassasalar borligini bilib, ular bilan hamkorlikda qilinadigan ishni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni to'garaklarga yo'llaydi. Maktab bolalalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni rejalashtirishda maktabdan tashqari muassasalardan olishi mumkin bo'lgan yordamni ham nazarda tutadi. Maktabning tarbiyaviy ish rejasini bolalar muassasalarining rejasiga moslashtirish zarur. Maktab tarbiyaviy ish rejasini o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlarning forma va metodlarini, ularni oqilona yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, maktab tarbiyaviy ishining umumiy rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalar hamda maktabni otaliqqa olgan tashkilotlarning ishlarini bir-biriga muvofiqlashtiradi.

1. O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqiyeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.

2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.

3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.

4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar

jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.
2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

2. Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq vazirligi tomonidan 1993 yilda tasdiqlangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika

vositalaridan oqilona foydalanish koʻzda tutiladi. Ular oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qoʻshimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni oʻzlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar vahokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va boʻlimiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda oʻqituvchilarning oʻquvchilar bilan muomilasi, adolatli boʻlishi, ta'sir koʻrsata olishi kerak.

Oʻquvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sugʻorish, ya'ni singdirish kerak. Oʻquvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'alarimiz asosida tarbiyalash har bir oʻqituvchining vazifasi.

Oʻquvchi atrofini oʻrab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, oʻqituvchilar, maktabning muhiti, oʻquvchilar tarbiyasini toʻgʻri, ongli ravishda oʻrganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni toʻla qamrab olgan toʻgaraklar bir necha xilda boʻlishi mumkin:

Toʻgarak turlari:

1. Fan toʻgaraklari.
2. Mohir qoʻllar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

Koʻrib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida toʻplangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatilari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, hohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
2. Estetik ta'lim;
3. Sayyohli yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Xuquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqlol bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

Bolalar iarbiiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng kata imkoniyatga egadir.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi.

3. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sinf rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. Uqituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.

7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xudi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymasini, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni

va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga muayan ma'lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

4. O'rta umumta'lim maktablarida sinfda va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko‘p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar ni rejalashtirish va amalga oshirish.

O‘quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko‘p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o‘quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo‘lga ko‘yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo‘nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o‘qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o‘quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko‘rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko‘rish mumkin: tashkilotchilik, umumiy va ma'muriy.

Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘ladi. Tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
2. Tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni hamda shakl usullarini aniqlash.
4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni guruhlashtirish boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Shular asosida yangi bilimlarni hosil qiladi. O‘quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo‘ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o‘quvchilar jamoadagi ishlarini o‘rganadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘z ishini reja asosida olib boradi va

uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejalari ishini ham e'tiborga olishi kerak.

Ish reja maktab direktorii tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalarning yosh xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda beri boriladi. A. Jo'raevning «Tarbiyaviy darslarni o'tish» risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlardan qoidalarga asoslangan qonunlar belgilangan. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi tarbiyachilar o'z faoliyatlar ijarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;

- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;

- tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasi jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;

- tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

- bola shaxsiga xurmat va talabchanlik;

- bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog'liq.

I-II sinf «Atrofimizdagi olam» o'quv dasturi. «Atrofimizdagi olam» fani o'quvchilarning atrof va olam haqidagi tasavvur hamda tushunchalarini shakllantirish bilan birga ularning so'z boyliklarini oshirishga qaratilgan «Atrofimizdagi olam» fani kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni atrofdagi hayot

hodisalari bilan tanishtirish jarayonida ularning o'rganish qobiliyatini uzluksiz rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berish, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

1-sinflar uchun «Atrofimizdagi olam» o'quv dasturi «Kirish», «Atrofimizdagi tabiat», «Biz foydalanadigan jihozlar», «Bizning o'lka» kabi qiziqarli bo'limlarni o'z ichiga olgan.

2-sinflar uchun «Atrofimizdagi olam» o'quv dasturi esa «Kirish», «Atrofimizdagi olamni o'rganamiz», «O'lkamizda kuz», «Ona zaminimiz», «Qish», «Sog' tanda – sog'lom aql», «O'lkamizda bahor» kabi bo'limlardan iborat.

O'quvchilar o'qituvchi yordamida, tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalarni kuzatadilar. Mashg'ulotlar faqatgina sinfda emas, balki ko'chada, istirohat bog'larida, muzeyda, dalada va boshqa shu kabi joylarda o'tkaziladi. Tabiat qo'yniga sayr, turli kasb egalari bilan uchrashuv va suhbatlar, didaktik o'yinlar, rasmlar chizish, diafilm, diapozitivlar, kompyuterda ko'rish – bular mashg'ulotlarning bolalar uchun qiziqarli va sermazmun o'tishiga imkon yaratadi.

3-sinf «Tabiatshunoslik» dasturi quyidagi bo'limlardan iborat: «Kirish», «Foydali qazilmalar», «Tabiatda havo va suv», «O'simliklar», «Hayvonot olami», «Sog'lig'imizni saqlaylik».

Dasturdagi dastlabki mavzu ona yurt tabiatini yoritib berishga qaratilgan. 3-sinfda tabiatdagi havo, suv, foydali qazilmalar va tuproq singari jonsiz tabiat mavzulari haqida bilimga ega bo'lgan o'quvchida atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish zarurati yuzaga keladi, shuningdek, 3-sinfda tabiatshunoslik fani materiallarini o'rganish jarayonining mantiqiy izchilligi ta'minlanadi. «Bizni o'rab turgan havo», «Suvning xususiyatlari», «Tabiatda suv», «er osti boyliklari», «Tuproq» mavzularini o'rganish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan: tabiat va inson hayotida suv, havo, tuproq qanday o'rin tutadi? foydali qazilmalar nima uchun kerak? suv, havo, tuproqni qanday asrash lozim?

4-sinf Tabiatshunoslik fanidagi mavzular quyidagi bo'limlar tarkibida o'rganiladi: «Kirish», «er – quyosh sistemasidagi sayyora», «er yuzasi tabiatining xilma-xilligi», «O'zbekiston xaritasi yonida», «Vatanimiz bo'ylab sayohat».

«Kirish» mavzusida «Atrofimizdagi olam» fanidan birinchi sinfdan uchinchi sinfgacha olingan bilimlar umumlashtiriladi.

«er quyosh sistemasidagi sayyora» bo‘limi o‘z ichiga «Yulduzlar», «Quyosh – eng yaqin yulduz», «Quyosh sistemasidagi sayyoralar», «Asteroidlar», «Kometalar», «Meteorlar», «Globus – yerning kichraytirgan shakli», «erning o‘z o‘qi atrofida aylanishi», «Kun bilan tun», «Yil fasllarining almashinishi», «erda yorug‘lik va issiqlikning taqsimlanishi», «Oy–erning yo‘ldoshi» kabi mavzularni o‘z ichiga olgan. Ushbu mavzularni o‘tishda yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar, kometalar, meteorlar haqida tushunchaga ega bo‘lish bilan birga yer sharining tuzilishi, materik va okeanlarning joylashuvi, O‘zbekistonning globus va yarim shar xaritalarida joylashgan o‘rni bilan tanishiladi. O‘quvchilar quyosh nuri tushadigan yer yuzasi mintaqalari, ularning joylashuvi haqida xabar topadi, ob-havo haqida oddiy tasavvurga ega bo‘ladi. O‘quvchilar aniq misollar yordamida sayyoramizning ekologik muammolari bilan tanishadilar va imkoniyatlari yetgancha ularning yechimlarini izlashga harakat qiladilar.

O‘quvchilarda yer yuzasining shakllari (tog‘, tekislik va suvli joylar) haqida 2-sinfning «Atrofimizdagi olam» fanidan olgan oddiy tushunchalari 4-sinfning tabiatga sayohat darslarida aniq tushunchalar asosida shakllantiriladi. Ta’limning ko‘rgazmali hamda texnik vositalaridan foydalanish yo‘li bilan bu tasavvur va tushunchalar mustahkamlanadi. O‘quvchilar tepalikni tog‘dan, tekislikni o‘rmon-qirlardan ajrata olishlari yer yuzasi shaklini o‘rganish, solishtirish asosida olib borilishi lozim. Agar imkon bo‘lsa, o‘quvchilar sayohat chog‘ida suv havzalari bilan tanishadilar.

Dasturlar tahlilidan ma'lum bo‘ldiki, dasturlarda ekologiyaga oid bilimlar tizimi yetarli ravishda o‘z aksini topgan. Ammo o‘quvchi va o‘qituvchilarning ekologiyaga oid, xususan, tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash masalasida yetarli bilim, ko‘nikma va malakaga ega emasliklari ayon bo‘ldi. Bu muammoni hal etish maqsadida boshlang‘ich sinf darsliklarini tahlil etdik.

Dasturdagi ekologiyaga oid g‘oyalar darslikdagi mavzularga qanday singdirilganlik darajasini bilish maqsadida darsliklarni tahlil etdik.

I.2 Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarida ekologik madaniyatni tarbiyalash imkoniyatlari.

Ekologik tarbiya. Ekologiya so'zi «tom» yoki «uy» degan ma'noni anglatib, nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan birinchi bor fanga kiritilgan. Ekologiya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega:




o‘simliklar ekologiyasi, zoоекologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekologiya fani tanlab olingan bir yoki bir necha ob'ektning yashash sharoitini yoki normalarini o‘rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu yo‘nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni yetkazadi, ammo bu bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko‘ra, yana boshqa yo‘nalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham bo‘lsa ekologik tarbiya masalasidir.

Ekologik tarbiya albatta ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to‘g‘ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o‘z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo‘yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg‘ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur bo‘ladi. Ekologik munosabatlarga:

1. Hayotga munosabat.
2. Yaxlitlik hissini tarbiyalash.
3. Javobgarlik hissini tarbiyalash.
4. Tabiat go‘zalliklarini his etish kabi komponentlarni kiritish mumkin.

Ekologik tarbiyaga nafaqat bugun, balki ota-bobolarimiz ham chuqur mas'uliyat bilan qarashgan. Masalan, atrof – muhitni iflos qilmaslik maqsadida, axlat tashlash, chiqindilarni tashlash uchun alohida chuqurlar qazilgan, hojatxonalarni ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqrok joyda kovlashgan, turli ehtiyojlar uchun faqat qurib qolgan daraxtlarni kesishgan, hayvonlarni azob berish, qushlar uyasini buzishni, gunoh sanashgan.



Bu borada oilada «Suvga tupurma, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi», «Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o‘zing iste‘mol kilasan», «Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo‘ladi, chunki unda ahli mo‘minning nasibasi bor» deb tarbiya berilgan.

Ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimi bolalar bog'chalarida, umumiy ta'lim maktablarida, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Bu o'rinda hayotiy misollar orqali hozirgi paytda oilalarda ekologik savodxonlikning pastligi uqtiriladi. Masalan, hozir ko'plab odamlar mollarini ekinzorlarda, bog'larda hatto mevali va manzarali daraxtlarga bog'lab boqadigan bo'lib qolishmoqda. Axir o'tmishda xalqimiz qaramog'idagi hayvonlariga maxsus podachi saqlangan – ku. Yoki moli bor kishilar navbat bilan poda boqqanlar – ku. Buning uchun hozirgidek hayvonlarni duch kelgan yerda emas, alohida ajratib qo'yilgan yaylovlarda o'tlatishgan. Yoki oilaviy dam olishga chiqilganda o't – o'lanlar payhon qilinmagan, qir – adirlarda shisha siniqlari, ovqat qoldiqlari tashlab ketilmagan. Daraxtlarga, o'simliklar olamiga, hayvonlarga zarar keltirilmagan. Ekologik tarbiya berishni tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Atrof muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- Tabiat va uning ahamiyatini aniqlash;
- Tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilaning hamkorligi;
- O'z nohiyasi, shahari, qishloq va maktabi hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- Atrof – muhit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- Tabiatni muhofaza qilishda ota – onalarning namunalari;
- Yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.
- Oilada, maktabda tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish ;

Insoniyat tarixidan ma'lumki, sog'lom jamiyatni faqatgina sog'lom muhit yaratadi.

O'zbekistonning porloq kelajagini ta'minlash «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topgan. Shu munosabat bilan boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalardan biri o'quvchilarni atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishdir.

Bunday vazifani muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchilardan o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lishni, ijodkor bo'lishni, pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni o'tkazishni talab etadi.

Bunday sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina ekologik ta'limning nazariy bilimlarini chuqur egallagan, tabiatdagi jarayonlarning sir-asrorini biladigan, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatini tushunadigan, aynan tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'ladigan barkamol shaxsni tarbiyalashi lozim. O'qituvchi ta'lim berishi uchun turli qo'llanmalar, ommaviy axborot vositalari, darsliklar, sinfdan tashqari tadbirlar muhim manba hisoblanadi.

O'quvchilarni tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash faqat dars jarayonida tarkib topmaydi. Dars vaqt jihatdan cheklangan, unda ko'pgina muhim ekologik bilimlarni o'quvchilarga o'rgatib bo'lmaydi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar esa vaqt jihatidan cheklanmagan. O'quvchilarning dars jarayonida olgan ekologik bilimlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlantirish samarali natija beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarining davomi hisoblanadi va ular mazmunini to'ldirib, bir butun jarayonga birlashtiradi.

Sinfdan tashqari tadbirlar o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kengaytirishga imkon beradigan ta'limning qo'shimcha va erkin turidir.

Atrofimizdagi olamni o'rganishda o'quv sayohatlari katta ahamiyatga ega. Sayohat darslari o'quv ishlarini tashkil etishning shakli sifatida o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Tabiatni kuzatish jarayonida bilish faolligi shakllanadi, o'quvchilarning jonli va jonsiz tabiatning o'zaro aloqasi, o'simlik hamda hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlari kengayadi.

Tabiat bilan muloqot o'quvchilarda go'zal his-tuyg'ularni uyg'otadi. O'quvchilar yashil maysalar, qushlarning sayrashi, kapalak parvozi, daraxtlar va o'simliklarning rang-barangligiga mahliyo bo'ladi.

Sayohatlarni tashkil etishdan maqsad - bog'dagi daraxt turlari, o'simlik, hashoratlar, qushlarning hayot tarzini o'rganishdan iborat.

Sayohatni samarali kechishida quyidagilar muhim omil hisoblanadi:

- sayohat maqsadining aniqligi;
- ob'ektning to'g'ri tanlanganligi;
- sayohatning muayyan reja asosida tashkil etilishi;
- o'quvchilarning diqqatini kuzatilayotgan ob'ektga yo'naltirishga xizmat qiluvchi o'quv topshiriqlarini aniq ishlab chiqilganligi;
- o'quv topshiriqlarining muammoli xususiyatga ega bo'lishini ta'minlash;
- kuzatish jarayonida o'quvchilarning erkin, mustaqil harakat qilishga rag'batlantirib borish;
- har bir o'quvchining alohida faollik ko'rsatishiga erishish;
- ularning faoliyatini izchil nazorat qilib borishga imkon beruvchi sharoitning mavjudligi.

Sayohat jarayonida o'quvchilarni yil davomida olgan bilimlari mustahkamlanadi va fenologik kuzatish faoliyati oshadi;

Sayohat davomida o'quvchilarni ekologik tushunchalar bilan tanishtirishning qo'ydagi usullari bor: suhbat, hikoya, sayohat, savol-javoblar, kuzatish, xulosa.

Quyida namuna sifatida 3–sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan sayohat darsi haqida fikr yuritiladi.

Mavzu: Tabiat nima?, Biz va tabiat.

O'qituvchining kirish suhbatida quyidagi savollar hal etiladi:

1. Insonlar faoliyatida atrof-muhitning qanday ahamiyati bor?

1. Nima uchun tabiatni e'zozlab, uni «Ona tabiat» deb ataymiz?

1. Tabiatga zarar yetkazmaslik uchun o'zingizni qanday tutasiz?

O'simlik va darxatlarning shoxlarini sindirmaslik, hashorat va qushlarga ozor bermaslik to'g'risida tushuncha beriladi.

O'quvchilar sayohat jarayonida kuzatuv daftarlarida quyidagilarni yozib boradilar: daraxt va uning turlari, o'simlik, gullar, hashorat va qushlarni.

O'quvchilarga mazkur topshiriqlarni bajarishda quyidagilar tavsiya etiladi:

T/r	Darxat turlari	T/r	O'simliklar va gullar	T/r	Hashoratlar	T/r	Qushlar
1.	Archa	1.	Yalpiz	1.	Chigirtka	1.	Chug'irchuq
2.	Chinor	2.	Lola	2.	Kapalak	2.	Musicha
3.	Olma	3.	Atirgul	3.	Asalari	3.	Chittak
4.	Uzum	4.	Beda	4.	Xonqizi qo'ng'izi	4.	Kabutar
5.	Anjir	5.	Qoqio't	5.	Chumoli	5.	Chumchuq
6.	O'rik	6.	Paxta	6.	O'rgimchak	6.	Sassiq- popishak

2.3.2-jadval

Darxtlarni kuzatish

T/r	Daraxt nomi	Shakli	Rangi va barglari	Mevalari
1.				
2.				

2.3.3-jadval

O'simliklar va gullarni kuzatish

T/r	O'simliklar va gullar nomi	Shakli	Barglari	Gullarining rangi
1.				
2.				

2.3.4-jadval

Hashoratlarni kuzatish

T/r	Hashoratlarni nomi	Foydali hashoratlarni	Zararkunanda hashoratlarni	Hashoratlarni rangi
1.				
2.				

2.3.5-jadval

Qushlarni kuzatish

T/r	Qushlarni nomi	Yashash joylari	Ularning farqli jihatlari	O'xshash jihatlari
1				
2				

Topshiriqlar bajarib bo'lingach, o'qituvchi sayohat darsi natijalarini umumlashtiradi va o'quvchilarga uyga vazifa beradi.

Uyga vazifa: Sayohatdan olgan taassurotlaringiz haqida insho yozing.

Sayohat darslari asosida o'quvchilar tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish; tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek inson faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlarini chuqur o'rganish; o'quvchilarni tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashga qaratilishi lozim.

Sayohat jarayonida noan'anaviy dars: rolli o'yin, harakatli o'yin, kuzatish usullaridan foydalaniladi. Bunday dars o'quvchilarning atrof-muhitga qiziqishlarini oshiradi. Ular tabiatga ongli munosabat ruhida tarbiyalanadi.

Biz 3-sinf o'quvchilari bilan «Tabiatni seving, ardoqlang», «Qushlar bizning do'stimiz», «Men tabiatni sevaman» kabi mavzularda sayohatlar uyushtirdik.

«Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik» fanlari bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati va uning ijtimoiy foydali yo'nalishi.

O'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg'ulotlar: sayohat ishlari, ertaliklar, sinfdan tashqari o'qishlar, qiziqishlar bo'yicha to'garaklar va

boshqa ishlar o'tkaziladi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning tabiatni bilishga qiziqishini uyg'otadi. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va aniqlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilar faolligi va tabiatni e'zozlashga bo'lgan munosabatini rivojlantirish, bu vaqtni tashkillashtirish imkoniyatini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy dunyoga qarashni va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilishga qiziqishni va mustaqil kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamoatchilik hissini va tabiatga muhabbatni tarbiyalaydi. Tabiatshunoslik bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va e'zozlash, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. O'quvchilar e'tiborini tabiat, shuningdek, maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba maydonidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish lozim.

Birinchi guruh	Ikkinchi guruh	Uchinchi guruh
Ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar.	Cheklangan o'quvchilar doirasida olib boriladigan to'garak ishlari.	Tabiatni o'rganishga qiziqqan ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar.

Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlarni namoyish qilishni, tabiatga sayohatlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek, tadbirlar (hosil kuni, bog' haftaligini, daraxtlar o'tkazish haftaligi, qushlar kuni va boshqalar) o'tkazishni nazarda tutadi.

Guruh mashg'ulotlarga yosh geografiyachilar, yosh tabiatshunoslar, to'garak ishlari kiradi. Individual mashg'ulotlar devoriy gazetalar, albomlar chiqarishni; jonli tabiat burchagi va maktab o'quv-tajriba maydonidagi, tabiatdagi ishlarni; darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun tabiatshunoslik mazmunidagi materiallar tanlashning tabiat to'g'risidagi «Yosh tabiatshunos» jurnallariga, o'quvchilar ilmiy-ommabop kitoblariga tahlil berishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlarning barcha turlari bir-birlarini to'ldirishi va takomillashtirishi lozim. Individual topshiriq yoki o'qituvchining tavsiyasini bajarishda muayyan qiziqish uyg'onishi lozim. Bir necha o'quvchilardagi o'xshash qiziqishlarni aniqlab, o'qituvchi ularni to'garakka birlashtiradi. Bunday birlashmalar ommaviy sinfdan tashqari tadbirlarning tashkiliy markazi bo'lib qolishi lozim, ularni muvaffaqiyatli o'tishi uchun turli tayyorgarlik ishlari va ko'p sonli ishtirokchilar kerak.

O'quvchilarni tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari ishning tashkiliy shakli, mazmuni, o'tkazish metodlari jihatidan xilma-xil bo'lishi kerak. Uning mazmuni qandaydir doimiy bo'lmaydi. U o'quvchilar tarkibi, yoshi, qiziqishi va ehtiyojiga, maktabning tabiiy o'rami, yil fasli, xona va jihozlarga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi lozim bo'lgan ishlarning taxminiy ro'yxati quyidagicha:

- tabiatda kuzatishlar, tabiiy hodisalarning sabablarini aniqlash;
- o'lkashunoslik muzeyiga (tabiat muzeyiga), qazilma boyliklar olinadigan joylarga, dala va fermalarga to'plangan materiallarni rasmiylashtirish bilan sayohatlar;
- tabiiy material to'plash va rasmiylashtirish, kolleksiya, gerbariy, maket, model tuzish;
- maktabning atrof tabiat xaritasi va unga yondashgan joyning rejasini tuzish;

- ilmiy-ommabop, tabiatshunoslik adabiyotlarni, «G‘uncha», «Yosh tabiatshunos» jurnallarida e‘lon qilingan maqolalarni jamoa bo‘lib o‘qish;
- jonli tabiat burchagi tashkil qilish, o‘simlik va hayvonlarni kuzatish va ular usida tajribalar o‘tkazish, shuningdek, maktab oldi uchastkasida tajriba va kuzatishlar olib borish;
 - tabiatshunoslik mazmunidagi kinofilm, diafilm, diapozitivlarni ko‘rish;
 - xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmalari bilan tanishish;
 - ommaviy tadbirlarda (bayram, ertalik va h. k.) qatnashish;
 - Toshkent shahar va Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi hayvonlari bilan tanishish;
 - tabiatni muhofaza qilish, odam hayotida o‘simlik va hayvonlarning foydasi va ahamiyati to‘g‘risida suhbatlar;
 - tabiatni e‘zozlashga qaratilgan ijtimoiy-foydali ishlar, ko‘kalamzorlarni muhofaza qilish, daraxt va butalar o‘tkazish hamda ularni parvarish qilish, begona va madaniy o‘simliklarning urug‘, mevalarini yig‘ish, begona o‘tlar, dala, poliz, bog‘, o‘rmon zararkunandalarga qarshi kurash, foydali hayvonlarni muhofaza qilish;
 - tabiatshunoslik xonasini, o‘lkashunoslik burchagini, ko‘rgazmalarni, tabiat burchagini jihozlash;
 - tabiiy materialdan oddiy ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, o‘quvchilar ishlarining ko‘rgazmasini tashkil qilish;
 - devoriy gazeta va albomlar uchun material yig‘ish;
 - devoriy gazeta, «Ona tabiat haqida», «Tabiatni e‘zozlang», «Tabiat haqida o‘qi» va shu kabi yangiliklarni chiqarish;
 - yangiliklar burchagi hamda sinfdan tashqari o‘qish mavzulari bo‘yicha qo‘shimcha o‘qish uchun adabiyot yig‘ish.

Tabiatni e‘zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishining metod va uslublarini o‘qituvchi oldindan rejalashtiradi, o‘quvchilar faoliyatining xilma-xil turlariga jalb qiladi. Sinfdan tashqari ishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan har bir mashg‘ulot uchun materialni to‘g‘ri

tanlanishiga, uni o'tkazishning tuzilish rejasi va metodikasiga, shuningdek mo'ljallangan tadbirlarda o'quvchilarning faol qatnashishlariga bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda individual ishlar. Tabiatni bilish va moyillik yoki hych bo'lmaganda qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan tabiatshunoslik bo'yicha individual ishlar olib boriladi. O'quvchilarda tabiatga qiziqishi vujudga kelishida o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muhabbati va unga ehtiyotlik munosabati, o'quvchilarni ergashtira va qiziqтира olish uquvi katta rol o'ynaydi. Uning 1-sinfda kuzatishlarni qanday tashkil qilishiga, bu ishning zarurligi va muhimligini qanchalik asoslashiga, tabiatshunoslikni o'qitishni qanday yo'lga qo'yishiga o'quvchilarning bilim sifatigina emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda tabiatshunoslik ishlari bilan ishlash shakllari ham bog'liqdir.

Individual topshiriqlarni bajarish tadqiqiy ish ko'nikmalarini shakllantiradi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi. Individual topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'quvchini nimaiki qiziqtirmasin – xona o'simliklarini parvarish qilishmi, hayvon va o'simliklarni tasvirlagan marka yoki otkritkalarini to'plashmi, gerbariy tuzishmi, tabiatda tajribalar qo'yish va kuzatishlar o'tkazishni – u o'qituvchi tomonidan ma'qullanishi va quvvatlanishi lozim. Individual topshiriqlarning mavzulari o'quvchilarning qiziqishlariga qarab tanlanadi, ammo topshiriqlarning mazmuni ularning bajarilishini tashkil qilish va metodikasi o'qituvchi tomonidan sinchiklab o'ylangan bo'lishi kerak (o'rganish ob'ekti, kuzatish yoki ish joyi belgilanadi, reja tuziladi). Ishning oxirga yetkazilishi va unga qiziqishni yo'qolmasligi uchun individual topshiriqlarni bajarilishida o'qituvchi o'quvchilarga muntazam yordam ko'rsatib borishi zarur.

Shu maqsadda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalashda o'quv sayohati va mehnat ta'limi darslaridan foydalaniladi. Individual topshiriqlarning bajarilishini tekshirib borish kerak, ish oxirida esa uning natijalarini o'quvchilarga bayon qilish zarur. Doim esda tutish kerakki, individual ishlarning amaliy ahamiyati faqat o'quvchilar uni amalga oshirish

zarurligini tushungandagina ta'minlanadi. Shunga ko'ra, qilingan ish to'g'risida vaqt-vaqti bilan (tabiatshunoslik darsida yoki sinfdan tashqari mashg'ulotda) hisobot tinglab borish foydalidir. Bunda har bir individual ishning natijalari barcha o'quvchilarning boyligi bo'lib qoladi. Bunday hisobotlar sinfdan tashqari ishlarga qiziqishni rag'batlantiradi, tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash to'g'risidagi o'quvchilar bilimini to'ldiradi va kengaytiradi, ularni sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllarida faol qatnashishlariga olib keladi.



II BOB. DARSDAN TASHQARI TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI TARBIYALASH USULLARI .

II.1. Fan to'garaklarida o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash usullari.

Guruh mashg'ulotlari. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning guruh bo'lib o'tkaziladigan shakllaridan biri to'garak ishidir. U muayyan ishtirokchilar doirasini qamrab oladi va tabiatni e'zozlashni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriydir, ammo unga kiruvchi o'z zimmasiga aniq reja bo'yicha ishlash va boshlagan ishini oxiriga yetkazish majburiyatini oladi. Rejaga o'quvchilar bajarishga kuchi yetadigan ishlar kiritilishi lozim. O'qituvchining asosiy vazifasi – amaliy natijalar beruvchi faol ishlarni ta'minlashdir. Ishda har xil: o'qituvchi va o'quvchilarning tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan og'zaki bayon qilishi, amaliy o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnati va boshqa metodlar to'g'ri uyg'unlashtirilishi lozim.

To'garakning muvaffaqiyatli ishlashida mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanish katta ahamiyatga ega. Birinchi mashg'ulot oldidan o'quvchilarga uni o'tkazish vaqti to'g'risida eslatish, to'garak vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtiruvchi kirish suhbatining mazmunini barcha tafsilotlari bo'yicha o'ylab chiqish zarur. To'garakning ish rejasini tuza turib, mo'ljallangan tematikani o'quvchilar bilan muhokama qilish va ularning taklif hamda shakllarini hisobga olish kerak. To'garakning birinchi mashg'ulotida uning faollari kengashi (sardori, uning muovini, muharririyat a'zolari) saylanadi va nomi («Tabiatni e'zozlayman», «Biz va tabiat», «Yosh tabiatshunos», «Tabiatni sevuvchilar») tasdiqlanadi. Eng yaxshi nom uchun tanlov e'lon qilinishi lozim. Shuningdek, to'garakda qatnashuvchilarning xulq-atvori tamoyillarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur.

Qoidalar: ishda faol qatnashish; barcha topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish; har bir ishni nihoyasiga yetkazish; kuzatishlar va bajarilgan ishlar kundaligini yuritish; o‘rtoqlariga yordam berish; mashg‘ulotlarga muntazam qatnashish.

To‘garak ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. Davomatni sardor yoki uning muovini maxsus jurnalda olib boradi. Mashg‘ulotlar ikki haftada bir marta muayyan kun va soatda o‘tkaziladi.

Birinchi mashg‘ulotda faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmaslik kerak. O‘quvchilarga kichikroq, lekin qiziqarli kirish mashg‘ulotlari berish kerak, to‘garak ishiga qiziqsinlar va nima bilan shug‘ullaishlari to‘g‘risida dastlabki tasavvurlar olsinlar. Ishni diafilm, diapozitiv ko‘rish, tabiatshunoslik mazmunidagi ilmiy-ommabop adabiyot o‘qish bilan boshlashadi.

Har bir yosh tabiatshunos yoki 3-4 kishidan iborat kichik guruh o‘qituvchi yordamida o‘zlari uchun muayyan mavzuni tanlaydilar. To‘garak rahbarining vazifasi – har bir ishtirokchini u uddalaydigan qiziqarli va foydali mavzu bilan tanishtirishdir. To‘garakda o‘tkaziladigan ish xilma-xil bo‘lishi, lekin umumiy maqsadga – jonajon tabiatni e'zozlashga va o‘rganishga birlashtirilishi zarur.

«Tabiatni e'zozlashga shayman» to‘garagining (3-4- sinflar) ishini quyidagi reja bo‘yicha tashkil qilish lozim:

2.3.6-jadval

T/r	Tabiatni e'zozlashga shayman	Mashg‘ulot joyi va vaqti
1.	Kirish mashg‘uloti	
1.	Tabiatga sayohat «Kuz ne'matlari» mavzusi	
1.	« O‘lkamizning qushlari», «Yil fasllaridagi o‘simliklar», «Yilning har xil fasllarida hayvonlar» diafilmlarni ko‘rish	
1.	«Tabiatni e'zozlash va avaylab asrash», «Ularni muhofaza qilish kerak» kabi suratlar bilan ishlash	

1.	«Oltin kuz» ertaligi	
1.	«Qanotli do'slarga yordam» operatsiyasi	
1.	Tabiat (o'lkashunoslik) muzeyiga sayohat	
1.	«Yosh tabiatshunos» jurnalidan qiziqarli hikoyalarni o'qish;	
1.	«Qizil kitoblar» to'g'risida suhbat; bu kitoblarga kiritilgan o'simlik va hayvonlarni ko'rsatish	
1.	Tabiatga sayohat (mavzu «Sehrli dorixona»);	
1.	To'garak ishlarini tahlili	

Mashg'ulotlarda: o'qituvchi va o'quvchilar hikoyasi, suhbat, amaliy ishlar bajarish kolleksiya to'plash hamda gerbariyalar yasash, tajribalarga tayyorlanish va o'tkazish, tabiatda o'tkazilgan kuzatishlarni muhokama qilish uslublaridan foydalaniladi.

O'qitishning texnika vositalari hamda qiziqarli materiallar to'garak ishlarining majburiy elementidir.

To'garak ishi. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari to'garak ishlaridan keng foydalanadilar, ularni boshqa ish shakllaridan farqi shundaki, to'garakda o'quvchilar erkinroq faoliyat tanlashlari lozim, o'zaro munosabatlar uchun erkin vaziyat yaratiladi, o'yinlarga ehtiyoj va qiziqish qanoatlantiriladi.

To'garak yig'inlarida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan: Bu nima? Nima uchun bu yuz beradi?. Qaerda buni ko'rish, bilish, o'qish lozim? kabi savollarga mustaqil javoblar berishga o'rganadilar. Har bir to'garak yig'ilishining zarur elementlari unda o'quvchilarning savollari va javoblaridir, javoblar topilgan manbalarning albatta ko'rsatilishidir. Bu ish bilan barcha o'quvchilarni qiziqtirish uchun sinfda «so'rang javob beramiz» quti qo'yiladi, unga savollar yozilgan varaqachalar solinadi.

To'garakning navbatdagi yig'ilishidan bir hafta oldin o'qituvchi savollarni mazmuniga qarab guruhlashtiradi, to'garak a'zolari orasida taqsimlaydi va javob topishni taklif qiladi. Javoblar tayyorlash uchun o'qituvchi to'garak a'zolariga ma'lumotnoma va ilmiy-ommabop adabiyotga murojaat qilishni, agar kerak bo'lsa, tabiatda yoki jonli tabiat burchagida kuzatishlar, oddiy tajribalar o'tkazishni tavsiya qiladi. Savollarga javob berishni narsa va hodisalarni o'simliklar gerbariysi, yoki ularning rasmlarini diapozitiv, diafilm ko'rsatish bilan olib borish ma'qul.

To'garak mashg'ulotini o'tkazishga bunday tayyorgarlik o'quvchilarda faqat kuzatuvchanlikni, qo'shimcha adabiyot bilan ishlash va savollarga to'g'ri javob berish uquvinigina emas, balki ko'rsatish uchun material tanlash uquvlarini ham rivojlantiradi, javoblarni ancha isbotli va esda qoluvchi bo'lishini ta'minlaydi, boshqa to'garak a'zolarida ham savollarni chuqur va qiziqarli yoritishga intilish vujudga keltiradi.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ommaviy ishlar sayohatlar, tanlovlar, diapozitiv va kinofilmlarni ko'rsatish bilan birga tematik kechalar, har xil tadbirlar (qushlar kuni, gullar va daraxtlar o'tqazish, Hosil bayramlari, Ona tabitni e'zozlash)ni ham o'z ichiga oladi. Ulardan maqsad - sinfdan tashqari ishlarga iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb etish, ularda qatnashishga ishtiyoq va xohishni uyg'otish, ularni ijtimoiy-foydali ishlarga yo'naltirish, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdir.

Tadbirda tayyorlanish tabiat to'g'risidagi o'z bilimlarini kuzatishlar yoki kitoblarni o'qish yordamida to'ldirish zarurati bilan bog'liq bo'lishi lozim. Chunonchi, bahor (ochiq kunlar, o'simlik va hayvonlarning uyg'onishi, qushlarning uchib kelishi) to'g'risidagi bayonni tayyorlash kuzatishlar va tabiatdagi bahorgi o'zgarishlar to'g'risidagi adabiyot o'qish bilan bog'liqdir. Tadbir rejada belgilangan vaqtda barcha o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilishi kerak (ota-onalar ham taklif etilishi lozim). Uyushqoqlik, chiroyli rasmiylashtirish (bezatish), yorqin chiqishlar shunday tadbirlarning uzviy qismlaridir. Ular ishtirokchilar xotirasida kechinmalarni saqlovchi va tabiatni

o'rganish hamda tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash hissiy ko'tarinkilikni vujudga keltiradi.

Darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalashda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi tajribada isbotlandi: muzyoralar, aqliy hujum, rolli o'yin, sehrlil daraxt, kim tez topa oladi, kim ekolog, zanjir.

Darsning borishi: O'quvchilarga tabiatni e'zozlash ruhida tarbiya berishda «Aqliy hujum» metodidan foydalaniladi.

Bunda o'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini aniqlash maqsadida, quyidagi savollar bilan murojat qilinadi.

Savol: Tabiat nima?

Javob: Tabiat atrofimizdagi mavjud bo'lgan barcha borliq.

Savol: Tabiatni e'zozlash deganda nimani tushunasiz?

Javob: Bu atrofimizdagi borliq, tog', suv, daraxt, qushlar va hayvonot olamini asrash, saqlash, qadriga yeta bilish degani.

Savol: Nima uchun tabiatni e'zozlab «Ona tabiat» deb ataymiz?

Javob: Insonning eng birinchi boquvchisi, tarbiyachisi-bu tabiatdir. Shu sababdan tabiatni e'zozlab «Ona tabiat» deb ataymiz.

Savol: Tabiat go'zalligini qanday his eta olasiz?

Javob: Atrof-muhit, tabiat go'zalligini ko'rib zavqlanaman.

Savol: Tabiatdagi o'simlik, gullarni payhon qilmaslik uchun o'zingizni qanday tutasiz?

Javob: O'simliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'laman, gullarni payhon qilmaslik uchun maxsus yo'laklardan yuraman.

Savol: Tabiatda qushlarning ahamiyati nimadan iborat?

Javob: Qushlarsiz hashorotlar dala va bog'larda yetishtirilayotgan o'simliklarga katta zarar yetkazadi.

Ana shunday savol-javobdan so'ng o'quvchilar bilimi umumlashtirilib, ularga fenoloik kuzatish uchun vazifalar beriladi.

Tadqiqot jarayonida debat usulidan ham foydalanildi: «Debat» usuliga ko‘ra sinf ikki guruhga bo‘linadi.

Tabiatni e'zozlashga oid muammolarga taalluqli mavzuda ikki guruh a'zolari munozara shaklida ish olib boradi, ya'ni birinchi guruh a'zolari ikkinchi guruh a'zolariga savol bilan murojaat qiladi, ikkinchi guruh a'zolari esa javob beradi. Bu jarayon ikkala guruh a'zolari tomonidan munozarali tarzda davom etadi.

Munozaraning boshlanishi:

1-guruh: Siz yashaydigan hududda qanday ekologik muammolar mavjud deb o‘ylaysiz?

2-guruh: Suv tanqisligi muammosi, hududimizdagi zavod va fabrikadan chiqadigan zaharli tutunlarning havoni ifloslashi.

2-guruh: O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga qaysi o‘simliklar va hayvonlar kiritilgan?

1-guruh: «Qizil kitob»ga quyidagi o‘simliklar kiritilgan: lola, nilufargul, archa, yovvoyi anor, nor kovrak, oq parpi, qo‘ng‘ir uzum; hayvonlardan: qoplon, turkiston silovsini, gepard, qo‘ng‘ir ayiq, O‘rta Osiyo qunduzi, ustyurt qo‘yi, Buxoro bug‘usi va Turon sirtloni.

O‘qituvchi: Javoblarni to‘ldirib mustahkamlash uchun o‘quvchilar diqqatini tortadi:

O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ida mamlakatimiz hududida kamayib bo‘lgan va kamayib borayotgan o‘simlik hamda hayvonlar haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

«Qizil kitob » ikki jilddan iborat bo‘lib, I jildida yo‘qolishi havfi ostidagi 301ta o‘simlik turlari, II jildida esa 184 hayvon turlari kiritilgan.

O‘quvchilar, quyidagilarni bilishi kerak: «Qizil kitob »ga kiritilgan noyob o‘simliklar va qirilib borayotgan hayvonlarni asrab avaylash siz va bizning burchimiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

«Debat» usuli o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirib borish bilan atrof-muhitdagi ekologik muammolarga ijobiy qarashga undaydi. «Debat» usuli munozarasiga 8-10 minut vaqt sarflanadi.

3-bosqich: Ikki guruh a'zolariga

1-guruh a'zolari «Suvni muhofaza qilish» mavzusi ustida ishlab muammoning yechish yo'llarini topishlari so'raladi.

Ular suv tabiatda turli xil: qattiq, suyuq va bug' holida uchrashini, suv bo'lmasa o'simlik, hayvonot va insonlar yashay olmasligini, suvni ifloslaydigan manbalar, suvni iflos qilmaslik uni asrab-avaylash haqida gapirib beradilar.

O'qituvchi birinchi guruh a'zolarining fikrlariga qo'shilib, haqiqatan ham suv hayot manbai ekanligini, uni e'zozlashni e'tirof etadi.

2-guruh a'zolariga «O'simliklar va hayvonlarni muhofaza qilish» mavzusi beriladi. Guruh a'zolari o'simlik va hayvonlarni asrab-avaylash barchaning burchi ekanligi haqida gapiradilar.

O'qituvchi: O'simlik va hayvonot dunyosi jonli tabiatga kiradi. Ularga ozor bermaslik lozim. Daraxtlar shoxlarini sindirmaslik, hayvonlarga ozor bermaslik kerakligini uqtirib o'tadi.

Bunday usullardan so'ng, o'quvchilarning tabiatdagi o'simlik va hayvonlarni e'zozlashga bo'lgan qiziqishlari ortib, maktab va sinf xonalarda jonli burchak tashkil etadilar.

Shu nuqai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilari Ona tabiatni e'zozlash va uning komponentlari haqida bilimlarga ega bo'ladi, atrofimizdagi olamning go'zalligini his qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarni bu haqida ko'proq o'ylashga, bahslashishga, mustaqil fikrini bildirishga undaydi. Bu esa o'zining ijobiy natijasini beradi.

O'quvchilarni tabiatni sevishga o'rgatish eng muhim pedagogik muammo. Bizning 1-sinf o'quvchilari bilan olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, 1-sinf o'quvchilari hali yozish, o'qishni deyarli bilishmaydi, shuning uchun ko'rgazmali vositalar, sayohatlar orqali ularning tabiat haqidagi tassavurlarini shakllantirishimiz zarur. Atrofimizdagi olamning o'quvchi hayotidagi o'rni, atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri, ushbu

holatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida 1-sinf o'quvchilariga ma'lumot berish hamda ularda atrof-muhit tozaligi va salomatligini saqlash ko'nikmalarini hosil qilish eng muhim pedagogik muammo.

Biz tadqiqot jarayonida 1-sinf o'quvchilari bilishi zarur bo'lgan ekologik tushunchalarni aniqlab, tizimlashtirdik:

1. Atrof-muhit; rang-barang olam.
2. Daraxtlar, butalar, maysalar. Yashab turgan joydagi ba'zi himoyaga olingan o'simliklar va hayvonlar.
3. Xashoratlar, baliqlar, qushlar, yovvoyi va uy hayvonlari.
4. Yil fasllarining asosiy belgilari.
5. Tabiatda o'zini tutish tamoyillari, o'zining shahri (qishlog'i) xaqidagi asosiy ma'lumotlar, manzili, transport turlari, shaxsiy gigiena tamoyillari, yo'l harakati tamoyillari, jamoat joylarida o'zini qanday tutishi kerakligi.

Ekotushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish usullari: suhbat, hikoya, sayohat, savol-javoblar orqali.

Quyida namuna sifatida dars ishlanmasi beriladi.

Mavzu: Suv – obi – hayot.

Dars aqliy hujum metodi bilan boshlanadi:

2.2.1 – jadval.

1	Suv nima?	4	Suv bilan bog'liq o'zbek xalq maqollaridan ayting?
2	Suv nima uchun kerak?	5	Suv haqidagi qanday ertakni bilasiz?
3	Suvdan siz qanday foydalanasiz?	6	Suv haqida qanday she'rni bilasiz?

Ana shu savollarga javob olingach; o'quvchi atrofida mavjud bo'lgan suv va uning sifati haqida fikrlar bildiriladi.

Bu darsda o'quvchilar quydagilarni bilishlari zarur:

- suvga tupirish gunoh;
- suvga chiqindi tashlamaslik;
- kran jumraklarini yopib yurish;
- yuvinganda suvdan tejab-tergab foydalanish;
- o‘tmishda bobolarimiz suvdan qanday foydalangan;
- toza suv bilan tomorqalarini sug‘ormaslik.

Uyga vazifa: yashaydigan joyingizda mavjud bo‘lgan suv holatini kuzating va kelgusi darsda o‘rtoqlaringizga so‘zlab bering.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni bu haqda ko‘proq o‘ylashga, bahslashishga, mustaqil fikrini bildirishga undaydi. Bu esa o‘zining ijobiy natijasini beradi.

II.2 Turli xil tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish usullari.

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta‘lim-tarbiyaning uzluksizligini ta‘minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga e‘tiborni kuchaytirish bilan ham ta‘lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga erishiladi. Darsdan va sinfdan tashqari ta‘lim-tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya‘ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg‘otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to‘ldirishdan iboratdir. Xuddi dars jarayonida bo‘lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham sinf o‘qituvchisining vazifasi mas‘uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas‘uliyat ulardan doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish faoliyatini

tashkil qilishga yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati — o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy o'quvchilik davr, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, 2 sentabr, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8 mart, Navro'z bayrami, gullar, mehrjon, hosil bayramlari kabilar. Mana shunday bevosita o'quvchilarda vatanga e'tiqod tushunchasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu uchun xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- aniq maqsad vareja asosida uyushtirilishi;
- tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarkib topishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish.
2. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish.

3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishini ta'minlash.
4. O'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash.
5. Tadbirni amalga oshirish.
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri o'qituvchi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, ularning ahamiyatliligi, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak (masalan, ertak va maqollar vositasida; tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar: «Navro'z», «Mustaqillik kuni», «Bilimlar kuni» va shu kabilar).
2. Yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida rag'batlantirish.
3. Darsdan tashqari orqali o'quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo'llarini izlash.
4. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta'sirida ba'zi o'quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, vatanga e'tiqod, milliy g'urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo'llarini izlamog'i lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida turli ertaliklar, kechalar, bellashuvlar o'tkazishni maqsadga muvofiq

deb bildik. Buning uchun, avvalo o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, bayramu sayillar va urf-odatlari haqida bolalarda tushuncha hosil qilish, vatan haqidagi she'rlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi. Milliy bayramlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g'urur va iftixor hissini shakllantiradi.

Bu kabi tarbiyaviy ishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiy darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, bunday ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Xuddi shunday ijobiy sifatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarkib toptirishda ertaliklarning o'z o'rnini bor. Ertaliklar bolalar uchun juda qiziqarli, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalaridan biridir. Ertaliklarda deyarli barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Ertaliklarga tayyorgarlik jarayonining o'ziyoq bolalarda qiziqishni uyg'otadi. Bolalar ertalik munosabati bilan milliy qadriyatlarimiz namunalarini bo'lmish topishmoq, maqol, tez aytishlarni yod oladilar. Biz kuzatishlar olib borgan maktablarning aksariyat qismida ertaliklarni o'tkazishga kam e'tibor berilishi aniqlandi. Bu sohada talab va istaklarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bir-necha bor ertaliklar uyushtirdik.

Bizningcha, ertaliklar quyidagi tartibda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to'plash;
- ertalikning dasturini tuzish;
- ertalikka mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;
- ertalik o'tkaziladigan joyini aniqlash va bezash;
- ertalikni muvaffaqiyatli o'tkazish va qatnashchilarni rag'batlantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan «Navro'z bayrami», «Mehrjon bayrami», «Gullar bayrami», «Alifbo bayrami», «Oltin kuz» va boshqa ertaliklarni uyushtirish mumkin.



Bahor - fasllar gulshani, uyg'onish fasli. Butun borliq, ona tabiat barq urib yashnaydi, yangilanadi. Tirik jonzot borki yangi kunning tug'ilishidan bahra oladi, zavqlanadi. Bizning tabarruk xalqimiz ham Navro'z bayramini, ya'ni yangi kunning tug'ilishini aynan bahor faslida nishonlashi bejiz emas.

Navro'z - xalqimizning eng ommaviy va go'zal bayramidir. O'zbek millatining umumxalq bayramlari orasida ushbu bayram o'ziga xos ekologik mazmun va ma'no bilan boyitilgan. Navro'z - o'zbek xalqining tabiat, yer va uning in'omlariga bo'lgan muhabbatining o'ziga xos mujassamligidir. Shunga ko'ra, o'zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do'stlik kabi ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Navro'z O'zbekistonda bahor va mehnat bayrami hisoblanib, bahor faslining boshlanishida o'tadi. Chunki, bu paytda dehqonlar yerga dastlabki urug'ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishadi. Qisqasi yerni bezashga harakat qilishadi, toki bu ijobiy ishlar insonlarga ezgulik keltirishiga, ularning qalbida ishonch va umid tuyg'ularining shakllanishiga olib keladi. Qadimgi an'analarga ko'ra, Navro'z ayyomi arafasida kishilar ma'lum bir shartlarni bajarishlari lozim bo'lgan. Ya'ni ko'cha va hovlilarni tartibga keltirish, hasharlarda ishtirok etish, ariq va zovurlarni tartibga keltirish, daraxtlarni qurigan shox-shabbalardan tozalash va oqlash, ko'chat hamda gullar o'tqazish, hushchaqchaq va shodumon yurish, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urushgan kishilar bilan yarashish kabi shartlarni bajarishlari lozim bo'lgan. Ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlarida yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Bularning barchasi ekologik tarbiyaning

ko‘rinishlari bo‘lib, ekologik an‘analar hisoblanadi. Yoki insonlarni tabiatni muhofaza qilishga, uning tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishga harakat qilishlari, bor kuchlari bilan amaliy faoliyat olib borishlari deb tushunsak bo‘ladi. Ushbu ibratli ishlarga yoshlarni ham jalb etish, ularda ekologik ong va dunyoqarashning shakllanishiga, insoniylik, vatanparvarlik, mehr-oqibatli bo‘lish kabi his-tuyg‘ularning tarkib topishiga olib keladi. Ayniqsa, biz suvlarni toza saqlash, undan tejamkorlik bilan foydalanish, havoning musaffoligiga erishish, tuproq, o‘simlik, hayvonot dunyosini muhofaza qilish kabi tadbirlarni hayotiy ehtiyojimizga aylantirishimiz lozim. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi har bir insonga tabiatsiz, tabiiy boyliklarsiz yashab bo‘lmasligini singdirishdan iboratdir. Inson tabiiy zaxiralarning tuganmas, cheksiz emasligi va qachonlardir tugashini bilishi kerak. Shu bois, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish zarur. Bu esa yoshlarda axloqiy me‘yorlarga rioya etish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bugungi kunga kelib, mustaqil ona yurtimizda buyuk xalqimizning asrlar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab kelgan ulug‘ bayrami o‘z mavqeyiga ega bo‘ldi. Turli to‘siqlar va qarama-qarshiliklarga qarshi katta kuch bilan millatimiz tomonidan asrab kelingan bayramning ozodlik yuzini ko‘rib, o‘z o‘rni va mavqeyini topishi hamda xalqimiz tomonidan umumxalq bayrami sifatida har yili nishonlanishi millatimiz uchun katta quvonchdir. Tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovati ramzi bo‘lgan go‘zal NAVRO‘Z bayrami tarovatini o‘z o‘rniga ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga yetkazish, ular ongi-qalbida qadimiy va mo‘tabar an‘analarimizga nisbatan mehru-muhabbat, tabiatga yaqinlik va uni e‘zozlash hislatlarini ular shuuriga singdirish muhimdir. Bular o‘z navbatida barchamizda, hozirgi kunda aholi o‘rtasida iymon-e‘tiqod, axloq-odob, savob va gunohning mohiyatini tushuntirib berish, tug‘ilib o‘sgan o‘z ona zaminini e‘zozlash, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi tuyg‘ularni, tejamkorlik, sarishtalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni qaror toptiradi. Ayni kunda dunyo bo‘yicha umumbashariy ahamiyat kasb etayotgan, qolaversa, respublikamizni ham chetlab o‘tmagan va katta xavf tug‘dirayotgan ekologik muammolar davrida Navro‘z bayramining mazmun-mohiyati bilan yosh avlodlarni tanishtirish ayni

muddaodir.

Zero, inson o'zining mehr-muhabbati bilan tabiatni muhofaza qilishi, unga yordam bera olishi mumkinligini anglab yetishi lozim. Shundagina ekologik falokatning oldi olinadi, insoniyat bu xavf-xatardan omon qoladi. Ekologik muammolarni hal etish uchun uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning ekologik madaniyati va dunyoqarashini shakllantirish zarur. Yurtimiz go'zalligi, ozodaligi, tozaligi va obodonligiga o'z hissamizni qo'shish – bizning maqsadimizdir. Shundan kelib chiqib barchamizda ekologik madaniyat va dunyoqarashni tarkib toptirish o'ta muhim vazifadir. Aslini olganda, bu vazifalar har birimizning yuksak insoniylik va ma'naviy burchimiz ekanligini anglab yetmog'imiz, tabiat, uning resurslarini asrab-avaylashga hamda ulardan oqilona foydalanishni hayotiy ko'nikmamizga aylantirishimiz lozim. Navruz o'ziga xos betakror bir olam bo'lib, inson zotini tabiat bilan doimo uyg'un va hamohang bulib yashashga da'vat etadigan o'zaro mehr-oqibat, qadr-qimmat, xayru saxovat ramzi va belgisidir. Ayni Navruz faslida barchamiz o'zimizning tabiat farzandi ekanimizni, xalqimizga xos milliy qadriyat va an'analar nechog'li teran va sermazmun, madaniyatimiz naqadar boy ekanini butun qalbimiz bilan anglaymiz va beixtiyor yuragimiz g'urur va iftixorga to'ladi. Axir bolalar o'sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi va mamlakatimiz taqdiri ularga bog'liq. Tabiatga mehr, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerakligini singdirish har birimizning burchimiz.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

O‘quvchilar atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalanadilar. Eng muhimi «Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik» va boshqa fanlar orqali integratsiyalab o‘qitish muammolari hal etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining olam va odam haqidagi bilim saviyasi, tasavvurlari chuqurlashadi, ilmiy dunyoqarashlari rivojlanadi.

Tabiiy sharoitlarda kuzatishlar olib borish, amaliy tajribalarni tizimli ravishda amalga oshirish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda mazkur o‘rinlarda o‘quvchilarning mustaqilligini ta‘minlash, ularning o‘z fikrlarini erkin bayon etishga, ular nafaqat tabiatni e‘zozlashga bo‘lgan munosabatini rivojlantiradi, balki atrof-muhitni avaylab asrash tuyg‘ularini oshiradi, uni mustahkamlaydi va barqarorlashuvga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashni hisobga olish muhim pedagogik muammo sifatida o‘z yechimini kutmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashning nazariy-amaliy jihatlariga tayanish kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunga kelib, sinfdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonini tabiatni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash asosida tashkil etish va shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limiy topshiriqlar tizimi hamda muayyan metodikani ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti darajasida, atrof-muhitga yondashuvda, tabiiy muhit sofliqi va yashovchanligida, shuningdek, ijtimoiy hayot rivojida dolzarb muammo ekanligi ilmiy pedagogik jihatdan asoslash.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalash vazifalari asosida o‘quvchilarning ekologik ongi, ekologik tafakkuri, faolligi, maqsadlari takomillashtirildi.

O'quvchilarda tabiatga shaxsiy munosabat bildirish, tabiat muhofazasi yo'lida shaxsiy namuna va tashabbus ko'rsatish, mustaqil ekologik faoliyatni tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirish.

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitiladigan "Atrofimizdagi olam", "Tabiyatshunoslik" fani asosida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish mazmuni, samarali shakl va uslublari ishlab chiqildi va bunda talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish, uni izchil rivojlantirish, tabiatni muhofaza etish, asrab-avaylash mas'uliyatini tarbiyalash, ekologik ta'lim olishni uzluksiz davom ettirish ijtimoiy ekologiya fani qonunlariga asoslash.

4. O'quvchilar o'rtasida muammoli vaziyatlarni tashkil etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, tekshirish va xulosa chiqarish kabi ekologik bilimlar, amalda qo'llash ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitiladiga ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadini amalga oshirish jarayonining xususiyatlari, jumladan, ekologik madaniyat, o'ziga va atrof-muhitga, tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy ekologik tarbiyaga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash asoslarini ochib berish.

6. Ekologik madaniyatning diniy, ekologik, iqtisodiy, fuqarolik, vatanparvarlik kabi turlari asosida o'quvchi ongida Vatanga muhabbat, o'z shahri va qishlog'i bilan faxrlanish, o'z xalqining tarixiy yutuqlari bilan g'ururlanish kabi xususiyatlarini shakllantirish.

7. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ularga ekologik bilimlar berish, tabiiy va sun'iy ekologik tizimlar to'g'risidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, amaliy ekologik faoliyatni tashkil etishga e'tibor qaratish va ularni fanlarni o'qitish jarayonida qo'llash borasida o'z samarasini ko'rsatish.

8. "Atrofimizdagi olam", "Tabiyatshunoslik" fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish bosqichma-bosqich, ya'ni ekologik mazmundagi bilimlarni egallash, egallangan nazariy ekologik bilimlar asosida

talabalarda amaliy faoliyat ko‘nikmalari ekologik faoliyat negizini hosil qilish asosida amalga oshirish.

Olib borilgan Bitiruv malakaviy ishning natijalari “Atrofimizdagi olam”, “Tabiyatshunoslik” fanlarini o‘qitishni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida ekologik madaniyatni tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun, – Toshkent, 1992.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O'zbekiston» 1999 yil.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.
–T.: “Ma'naviyat”, 2008.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.
–T.: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.
–Toshkent: «Sharq», 1997. –7b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.
– Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 686 b.
9. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi.
–T.: TDPU, 2000.
10. Berdanova P. Xalq og'zaki ijodida ekologik madaniyat // Xalq ta'limi.
–Toshkent, 2001. - №2. – B. 37-40.
11. Bahramov A.«Koinotga oid mavzular»//Boshlang'ich ta'lim
– Toshkent, 2008. - № 4 28-29– B.
12. Bahodirov A. Tabiatshunoslik Cho'lpon T.:2010. V – 120.
13. Dusanova Sh. «Tabiatdan foydalanishda ekologik madaniyatni shakllantirish muammolari» // Xalq ta'limi.
– Toshkent, 2008 yil №2 son – B. 42-44
14. Grigoryans A. G. Atrofimizdagi olam. Cho'lpon T.: 2010. V – 56.

15. Ismoilova. G. Xalqimizning ekologik an'analari va ularni tiklashning nazariy va amaliy masalalari // Xalq ta'limi.
– Toshkent, 2007 yil №1-2son – B. 97-98.
16. Ismoilova D. «Ekologik tanglik-umumbashariy muammo» // Xalq ta'limi.
– Toshkent, 2007 yil №4 son – B. 91-95.
17. Mamashokirov S. Ekologik ta'limtarbiya pedagogik tamoyillari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1995. - №7-8. – B. 28-31.
18. Maxmudov Yu.G'. Ekologiyadan qo'llanma. – Toshkent: Fan, 1997. – 42
19. M.Yo'ldoshev, F.Xusainova «Tabiatni asrash – insonni asrash» //Boshlang'ich ta'lim – Toshkent, 2007. - №4. – B.
20. Mirzaeva M. «Borliqaga muhabbat – tuyg'usi» //Boshlang'ich ta'lim – Toshkent, 2009. - №6. 22-23– B.
21. Pulatova D. «O'simliklar va hayvonot duryosi» //Boshlang'ich ta'lim – Toshkent, 2008. - № 6 26-27– B.
22. Salimov D.«Tabiatga muhabbat – vatanga muhabbat» // Boshlang'ich ta'lim – Toshkent, 2010. - №3. 30– B.
23. Shodimetov Yu.Sh. Sog'lom turmush tarzi: ijtimoiygigienik va ekologik muammollar. –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991. – 118 b.
24. Turdiqulov e.o. mutafakkirlar ekologik tarbiya haqida.
– Toshkent: o'zpfiti, 2003. – 22 b.
25. Turdiqulov e.o. ekologiyadan davlat ta'lim standarti // Xalq ta'limi.
– Toshkent, 2000. - №1. – b. 79-82.
26. To'xtaev A.S. Ekologiya. O'quvchilar uchun qo'll.
– Toshkent: O'qituvchi, Ziyonoshir K Sh K, 2001. – 144 b.
27. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. T-2006y.
28. Xasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish pedagogikasi.
– Toshkent, 1996.
29. G'ulomov P, Mirzaxmatova SH. Atrofimizdagi olam.
Cho'lpon T.:2010. V – 96.

30. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
31. Shodimetov Yu.Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. 1qism.
– Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 140 b.
32. Shamshetova A. «Ekologik ta'lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik jihatlari» // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2009 yil №2 son – B. 113-117.
33. Ravshanova N. «Ekologik ta'lim-tarbiyada interfaol usullardan foydalanish» // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2008 yil №6 son – B. 90-93.
34. <http://www.bilimdon.uz>
35. <http://www.ziyonet.uz>
36. <http://www.edu.uz>
37. <http://www.local.uz>
38. <http://www.fikr.uz>
39. <http://www.pedagog.uz>

MUNDARIJA

	Kirish.....	3-8
I BOB.	Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarini tashkil etishning ilmiy nazariy asoslari.	
I.1.	Sinfdan tashqari ta'lim tarbiya ishlari mazmuni.....	9-26
I.2.	Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarida ekologik madaniyatni tarbiyalash imkoniyatlari.....	26-38
II BOB.	Darsdan tashqari ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash usullari .	
II.1.	Fan to'garaklarida o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash usullari.....	39-47
II.2	Turli xil tarbiyaviy tadbirlarda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish usullari.....	47-53
	Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	54-56
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	57-59
	Ilovalar	